

VIKTOR GYUGONING “MISÉRABLES” ROMANIDA QO‘LLANILGAN AYRIM FRAZEMALARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Xolova Shahnoza Davronovna

Buxoro davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Shaxnozaxolova25@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada frazeologiyada ko‘p qo‘llaniladigan frazeologik birliklar, ularning asosiy turlaridan biri bo‘lgan frazemalarga ta’rif berilgan. Shuningdek, atoqli fransuz yozuvchisi Viktor Gyugo ijodi, uning “Misérables” romanida qo‘llanilgan frazemalardan namunalar keltirilgan. Ushbu frazeologik birliklarning fransuz va o‘zbek tillaridagi muqobillik va farqli jihatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: frazeologiya, frazema, termin, frazeologik birlik, so‘z, ma’no, tarkib, ibora, vosita.

ABSTRACT

This article lists the terms most commonly used in phraseology. Phraseological units are defined as phrases, one of their main types. There are also examples of phrases used in the novel “Misérables” by the famous French writer Victor Hugo. We had show the alternatives and differences of these phraseological units in French and Uzbek languages.

Keywords: phraseology, phrasema, term, phraseological unit, word, meaning, expression, ways.

АННОТАЦИЯ

В этой статье перечислены термины, наиболее часто используемые во фразеологии. Фразеологические единицы - это словосочетания, один из их основных типов. Есть также примеры фраз, использованных в романе «Бедственные» известного французского поэта Виктора Гюго. Показаны альтернативы и различия данных фразеологизмов во французском и узбекском языках.

Ключевые слова: фразеология, фразема, термин, фразеологизм, слово, значение, словосочетание, способ.

KIRISH

Fransuz adabiyotining zabardast vakili Viktor Gyugo qalamiga mansub she'riy va nasriy asarlarni mutolaa qilar ekanmiz, adibning so'zlarni ustalik bilan qo'llash, ibora va frazemalarni o'z o'rnida ishlatishda naqadar mahorat egasi ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Yozuvchining 1862-yilda yaratilgan "Les Misérables", ya'ni "Xo'rlanganlar" nomli romanida Inqiloblar asri, deb nom olgan XIX-asr Parij va fransuz provinsiyalarida xalqning nochor hayoti tasvirlangan. Ushbu tarixiy, ijtimoiy va falsafiy asarda muallif bir qator iboralar, turg'un so'z qo'shilmalari, frazeologik birliklar va o'xshatishlarni ishlatish orqali tasvir jozibasi va rang-barangligi, voqealar ta'sirchanligini oshirishga erishgan. Yozuvchining frazema qo'llash mahorati haqida gap ketganda, avvalo

Frazema — ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'noviy jihatdan o'zaro bog'liq so'z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko'chma ma'noda qo'llanadigan va bo'linmaydigan, barqaror (turg'un) bog'lanmalarning umumiy nomi. Frazeologizmlar, shaklan o'zlariga o'xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so'zlarni erkin tanlash, almashtirish yo'li bilan yuzaga kelmaydi, balki ma'no va muayyan leksik-grammatik tarkibli, avvaldan tayyor material sifatida qo'llanadi, ya'ni frazeologizm tarkibidan biror qismni chiqarib tashlash, tushirib qoldirish mumkin emas:

Tilning lug'at tarkibiga faqat so'zlar emas, balki turg'un bo'lib qolgan so'z birikmalari ham kiradi. Tarkibi ancha murakkab bo'lgan turg'un birikmalar frazeologizmlar, frazeologik birikmalar yoki iboralar deb ataladi. Tilshunoslikning frazeologizmlarni ilmiy tadqiq qiluvchi sohasi frazeologiya deyiladi. Frazeologizmlar tilning leksikasiga kirishi sababli frazeologiyaga tilshunoslikning leksikologiya sohasiga kiruvchi bir bo'limi sifatida qaraladi. Frazeologik birliklar tilning ifoda vositasini boyitishga, unga ta'sirchanlik berishga xizmat qiladi. Boshqa tillardagi kabi, fransuz tilida ham nutq jarayonida shakllanmay, balki tayyor holda qo'llanadigan so'z birikmalari, ya'ni frazeologizmlar ham anchagina miqdorni tashkil etadi. Frazeologik birliklar turlari qamroviga ikki yoki undan ortiq so'zlarning minimal ahamiyatli birikishga ega bo'lganlaridan tortib, yuqori darajadagi bo'g'lanishni o'zida aks ettiruvchi birikmalar kiradi. Birikish darajasi frazeologik birliklar ayrim turlari doirasida turlicha ekanligi ularni farqlashda qiyinchilik tug'diradi.

MUHOKAMA

Asrlar davomida shakllangan frazeologizmlar og'zaki nutqda, badiiy adabiyotda hamda publitsistikada o'tkir, ta'sirchan tasviriy vosita sifatida keng qo'llanadi. Yozuvchilar o'z asarlarida frazeologizmlardan unumli foydalanish bilan birga mavjud ularni asar ruhiga moslagan holda qisman o'zgartiradilar, shu yo'l bilan yangi iboralar

yaratadilar. Jumladan, Viktor Gyugo ham o‘z asarlarida tilning keng imkoniyatlaridan foydalangan holda, frazemalarga yetarlicha ko‘p miqdorda murojaat qilganligining guvohi bo‘lish mumkin. Adibning “Misérables”, ya’ni “Xo‘rlanganlar” romanida frazeologik birliklar uchraydigan quyidagi misollarni ko‘rib chiqamiz:

1. L’écroulement de l’ancien société française, la chute de sa propre famille, les tragiques spectacles de 93, plus effrayants encore peut être pour les émigrés qui les voyaient de loin avec le grossissement de l’épouvante, firent-ils **germer** en lui **des idées** de renoncement et de solitude ? (p.36)

2. Quoiqu’il en fut, après neuf ans d’épiscopat et de résidence a Digne, tous ces racontages, sujets de conversation qui occupent dans le premier moment les petites ville et les petites gens, étaient **tombés dans l’oubli** profond.(p.37) *Nima bo‘lganda ham, Digne qarorgohi va ibodatxonada o‘tgan to‘qqiz yildan so‘ng, omi insonlar va kichik shaharlarni ilk lahzalardanoq mahv etgan ushbu mish-mishlar va suhbat mavzulari chuqur unutilishga mahkum edilar.*

3. La veille du jour fixé pour l’exécution du condamné, l’aumônier de la prison **tomba malade**. (p.51) Mahbusning qatl etilishi belgilangan kun arafasida qamoqxonahuhoniysining *tobi qochib qoldi*.

4. Monsieur le curé **a raison**. Ce n’est pas sa place, c’est la mienne. (p.51). *Pop janoblari haq. Bu uning emas, mening joyim.*

5. Il **alla sur-le-champs** a la prison, il descendit au cabanon du « satimbanque », il l’appela par son nom, lui prit la main et lui parla. (p.52) *U oyog‘ini qo‘lga olib qamoqxonaga yetib keldi, uni ismini aytib chaqirdi, qo‘lidan tutdi va u bilan gaplashdi.*

6. Note pour **régler les dépenses** de ma maison. (p.40) *Uy xarajatlarini to‘g‘rilash uchun qaydnoma.*

7. Quelque temps après, le conseil général, **prenant** cette demande **en considération**, lui vota une somme annuelle de trois mille francs,... (p.41) *Bir qancha vaqt o‘tib, bu talabni e‘tiborga olgan bosh kengash, unga yillik uch ming frank miqdorida mablag‘ ajratdi.* (p.40)

8. ...ces coups mystérieux et terribles qui viennent quelquefois renverser, en le **frappant au cœur**, l’homme que les catastrophes publiques n’ébranlèrent pas en le frappant dans son existence et dans sa fortune ? (p.37) *Yurakni larzaga soladigan ushbu sirli va dahshatli zarbalar, hayotiga va boyligiga rahna soluvchi ommaviy fojealar o‘rnidan siljita olmagan odamni qulatilishga qodir edi.*

9. ...de grands yeux toujours baissés; un prétexte pour qu’une âme reste sur la terre. (p.38) *katta-katta ko‘zlar doim yerga qaragan edi ; go‘yoki qalb ham tuproqqa qorishib ketishi bahona qilinayotganday...*

10. Parlant toutes les langues, il **entraît dans** toutes **les âmes**. (p.49) *Barcha tillarda gapirib, u barcha qalblarga kirib borardi.*

Frazeologizmlar tarjima qilinar ekan, tarjima tilida asliyatdagi frazeologizmlarning barchasiga muqobil variant topilmasligi aniq. Binobarin, muqobili topilmagan frazeologizmni tarjima qilishda har bir holatda tarjimon alohida yo‘l tutishi kerak bo‘ladi. Tarjima jarayonida so‘z birikmalarining semantik hamda tuzilish xususiyatlarini hisobga olish lozim. Bunda birinchi navbatda o‘tini tarjima qilib olish tavsiya etiladi, chunki qanday aniqlanmish qo‘llanmasin hammasi o‘tini aniqlab keladi va ot gapda eng muhim ma‘noni ifodalaydi. Tarjimonning keyingi vazifasi gapdagi ma‘no guruhlarini ajratib olish hisoblanadi. Gapning ma‘no guruhi ajratib olingach, ot va sifat o‘rtasidagi grammatik aloqalar turi aniqlanadi. Otdan oldin kelgan so‘z va so‘zlar, uni aniqlab keladi, ularni agar gap fransuz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilinsa, uni o‘zbek tili grammatikasi qoidalari asosida va aksincha, agar gap o‘zbek tilidan fransuz tiliga tarjima qilinsa, fransuz tili grammatikasi normalariga asoslanib tarjima qilinadi.

XULOSA

Shunday qilib, tilimizning boyligi hisoblanmish frazeologizmlarning uslubiy va shakllanish imkoniyatlari keng bo‘lib, ular mohir san‘atkor qo‘lida har gal yangi emotsional bo‘yoq kasb etadi, o‘z ta‘sir kuchini yanada orttiradi. So‘z ustalari frazeologizmlardan ustalik bilan stilistik maqsadlarda foydalanish uchun ularning ma‘nolarini yangilashga, uslubiy imkoniyatlarini kengaytirishga intiladilar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. « Dictionnaire français-ouzbek », Institut français d’Études sur l’Asie Centrale, Tachkent, 2008
2. Jean-Claude ABSCOMBRE & Salah MEJRI, *Le figement linguistique : la parole entravée*, 2011, Paris : Honoré Champion, 41-61. « Phrasèmes dans le dictionnaire »
3. Mel’čuk « Tout ce que nous voulons savoir sur les phrasemes, mais... », Observatoire de linguistique Sens-Texte, Université de Montréal.
4. Victor Hugo « Les Misérables » Editions Gallimard, 1973 et 1995.
5. Jean-Claude ABSCOMBRE & Salah MEJRI, *Le figement linguistique : la parole entravée*, 2011, Paris : Honoré Champion, 41-61. « Phrasèmes dans le dictionnaire »
6. Michael Riffaterre, “La poétisation du mot chez Victor Hugo” Columbia University, 1966
7. Jacques Seebacher, « Esthétique et politique chez Victor Hugo », Paris, 1966
8. [https://fr.wikipedia.org/w/index.php?title=Phraséologie_\(linguistique\)&oldid=1687530](https://fr.wikipedia.org/w/index.php?title=Phraséologie_(linguistique)&oldid=1687530) 22 .